

INGLIZ TILIDAGI SO'ROV NUTQ AKTLARINING FUNKSIONAL VA SEMANTIK TURLARI

Asrayev Davron Shuxrat o'g'li

Lingvistika (Ingliz tili) mutaxassisligi magistranti
Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O'zbekiston.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19857473>

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz tilidagi so'rov nutq aktlarining funksional va semantik turlarini pragmatik tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etildi. Shuningdek, tadqiqotda Austin va Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasi metodologik asos sifatida qo'llanildi. So'rov nutq aktlari bevosita va bilvosita turlarga bo'linib, har birining sintaktik, semantik va pragmatik xususiyatlari ochib berildi.

Maqolada so'rovlarning direktiv, interrogativ va kommissiv funksiyalari, hamda ularning kontekstga bog'liq talqini alohida ko'rib chiqildi. Tadqiqot natijalari ingliz tilida muloqot madaniyatini o'rganish, tarjimonlik amaliyoti va ikkinchi til sifatida ingliz tilini o'qitish metodikasiga muhim hissa qo'shishi mumkin.

Kalit so'zlar: nutq aktlari nazariyasi, so'rov, direktiv, pragmatika, semantik tur, funksional tasnif, bilvosita nutq akti, ilokutiv kuch, ingliz tilshunoslik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются функциональные и семантические типы речевых актов запроса в английском языке с позиций прагматической лингвистики. В качестве методологической основы используется теория речевых актов, разработанная Дж. Остином и Дж. Сёрлем. Анализируются прямые и косвенные типы запросов, раскрываются их синтаксические, семантические и прагматические особенности.

Особое внимание уделяется директивным, интеррогативным и коммиссивным функциям запросов, а также их контекстуально обусловленной интерпретации.

Результаты исследования имеют практическую ценность для изучения культуры общения на английском языке, переводческой практики и методики преподавания английского как иностранного.

Ключевые слова: теория речевых актов, запрос, директив, прагматика, семантический тип, функциональная классификация, косвенный речевой акт, иллокутивная сила, английская лингвистика.

Abstract. This article examines the functional and semantic types of request speech acts in the English language from the perspective of pragmatic linguistics. The theory of speech acts developed by Austin and Searle serves as the methodological foundation of the study. Request speech acts are categorized into direct and indirect types, with their syntactic, semantic and pragmatic characteristics systematically analyzed.

The paper gives particular attention to the directive, interrogative and commissive functions of requests, as well as their context-dependent interpretation. The findings of the study may contribute significantly to the understanding of communicative culture in English, translation practice, and the methodology of teaching English as a second language.

Keywords: speech act theory, request, directive, pragmatics, semantic type, functional classification, indirect speech act, illocutionary force, English linguistics

KIRISH

Zamonaviy pragmatik tilshunoslikning eng muhim tadqiqot yoʻnalishlaridan biri nutq aktlari nazariyasi hisoblanadi. Ushbu nazariya doirasida soʻrov nutq aktlari oʻzining murakkab funksional-semantik tuzilmasi bilan alohida oʻrin tutadi. Ingliz tili misolida soʻrovlarni oʻrganish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyat kasb etadi, chunki muloqot jarayonida soʻrov aktlari eng koʻp qoʻllaniladigan kommunikativ vositalardan biri sifatida namoyon boʻladi[1].

Maqolaning asosiy maqsadi

Ingliz tilidagi soʻrov nutq aktlarini funksional va semantik mezonlar asosida tasniflab, ularning qoʻllanilish xususiyatlarini pragmatik kontekstda tahlil etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari

Soʻrov nutq aktlarining nazariy asoslarini aniqlash va ularning funksional turlarini belgilash. Shuningdek ular oʻrtasida semantik tahlil oʻtkazish hamda bilvosita soʻrovlarning lingvistik mexanizmlarini koʻrib chiqishni oʻz ichiga oladi.

ADABIYOTLAR SHARHI VA NAZARIY ASOS

Nutq aktlari nazariyasining boshlanishiga XX asrning 50–60-yillarida Oksford falsafa maktabi vakillari tomonidan asos solindi. J.L. Austinning “How to Do Things with Words” (1962) asari bu sohaning ilk tizimli manbayi sifatida tan olingan[2]. Austin soʻzlar orqali nafaqat maʼlumot etkazish, balki turli xil harakatlarni amalga oshirish mumkinligini isbotlab bergan. J.R. Searle (1969, 1979) Austinning nazariyasini yanada kengaytirdi va u nutq aktlarini beshta asosiy sinfga - assertivlar, direktivlar, kommissivlar, ekspressivlar va deklaratsiyalarga ajratdi[3].

Soʻrovlar ushbu tasnifda direktivlar sinfga kiradi, chunki ular tinglovchini muayyan harakat yoki javob berishga yoʻnaltiradi. D. Vanderveken nutq aktlarining ilokutiv kuchini rasmiy mantiq tili yordamida ifodalashga harakat qildi va soʻrovlarning ilokutiv nuqta, ilokutiv kuch darajasi, toʻgʻrilik sharti kabi xususiyatlarini batafsil koʻrib chiqdi[6]. Uning tadqiqotlari ingliz tilidagi soʻrovlarning turli intensivlik darajalarini - iltimos, talab, topshiriq, oʻtinish kabilarni farqlash uchun muhim metodologik asos yaratdi.

Xususan, hozirda oʻzbek tilshunosligida ham nutq aktlari nazariyasiga qiziqish ortib bormoqda. Misol sifatida olishimiz mumkinki, N. Mahmudov va B. Mengliyev oʻzbek tilida direktiv nutq aktlarini oʻrgangan boʻlsa, Z. Qodirov ingliz va oʻzbek tillarida soʻrov nutq aktlarini qiyosiy-tipologik aspektda tahlil qilgan[9]. Bu tadqiqotlar ingliz tilidagi soʻrovlarning oʻziga xos xususiyatlarini yanada aniq belgilash imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishini oʻrganish davomida tavsifiy-tahliliy usul, distributiv tahlil, pragmatik tahlil, qiyosiy usul va misollar tahlili usullaridan foydalanildi. Tadqiqot asosi ingliz tilidagi badiiy adabiyot, kundalik muloqot yozuvlari va instituttsional nutq namunalaridan tashkil topgan. Jami 450 dan ortiq soʻrov nutq akti namunasi toʻplanib, ular funksional va semantik mezonlar asosida tavsiflab chiqildi.

Funksional nuqtai nazardan ingliz tilidagi soʻrov nutq aktlari bir necha asosiy turga boʻlinadi.

⇒ *Interrogativ soʻrovlar.*

⇒ *Direktiv soʻrovlar.*

⇒ *Kommissiv soʻrovlar.*

⇒ *Ijrochi so'rovlar.*

Semantik nuqtai nazardan so'rov nutq aktlarini tahlil qilishda ularning propozitsional mazmuni, predikatsiya tuzilmasi va referensial xususiyatlari asosiy tadqiqot ob'ektiga aylanadi. Searlarning tasnifiga ko'ra, so'rovlarning propozitsional mazmuni tinglovchining kelajakdagi harakatiga ishora qiladi[3]. Ushbu xususiyat so'rovlarni boshqa harakatlardan farqlash imkonini beradi. So'rovlarda so'zlovchi tinglovchini ixtiyoriy ravishda harakat bajarishiga yo'naltirsa, buyruqlarda majburlovchi element ustunlik qiladi.

Bevosita so'rovlar lingvistik shakl va pragmatik funksiyaning to'liq mos kelishi bilan tavsiflanadi. Imperativ ("*Open the door*") va so'roq gap ("*Can you open the door?*") shaklidagi bevosita so'rovlarda ilokutiv maqsad grammatik tuzilmadan bevosita kelib chiqadi[4].

Shuningdek, ingliz tilida modal fe'llar so'rov nutq aktlarini shakllantirishda markaziy rol o'ynaydi. Can, could, will, would, may, might kabi modallar so'rovning ilokutiv kuchini modulyatsiya qiladi [13].

So'rov nutq aktlarining to'g'ri talqin qilinishi ko'p jihatdan pragmatik kontekstga bog'liq.

Xalqaro tadqiqotchilardan biri Herbert Paul Gricening kooperatsiya prinsipiga ko'ra, suhbatdoshlar ma'lumot miqdori, sifati, aloqadorligi va ifoda aniqligiga oid maksimalarga rioya qiladilar[14]. So'rovlar ko'pincha ushbu maksimalarga xilof tarzda ifodalanganda ularning bilvosita ma'nosi tinglovchi tomonidan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, ingliz tilidagi so'rovlarni o'zbeklar va ruslar tomonidan qo'llanilishi bilan qiyoslashda sezilarli farqlar kuzatiladi. Misol sifatida ko'rishimiz mumkinki, o'zbek tilida "*Itimos, menga yordam bering*" kabi to'g'ridan-to'g'ri so'rov odatiy hol bo'lsa, ingliz tilida ekvivalent ifoda "*Would you mind helping me for a moment?*" tarzida bilvosita shaklda berilishi odatlangan[9].

TAHLIL NATIJALARI VA MUHOKAMA

Tadqiqot doirasida tahlil qilingan 450 dan ortiq so'rov nutq akti namunasining tasnifi quyidagi natijalarga olib keldi. Funktsional jihatdan: interrogativ so'rovlar 38% ni, direktiv so'rovlar 47% ni, kommissiv so'rovlar 9% ni va ijrochi so'rovlar 6% ni tashkil etdi. Ushbu statistika direktiv funksiyaning ingliz tilidagi so'rov nutq aktlarida dominant ekanligini ko'rsatadi[16].

Semantik jihatdan bilvosita so'rovlar bevosita so'rovlarga nisbatan sezilarli darajada ko'proq 63% ga qarshi 37% uchraganligi aniqlandi. Bu nisbat ingliz tilida so'rov ifodalarining majoziy-metaforik xususiyati va odoblilik prinsiplarining kuchli ta'sirini tasdiqlaydi[8]. Kontekst tahlili shuni ko'rsatdiki, so'rovning pragmatik maqsadi va til shakli o'rtasidagi munosabat qat'iy emas, balki dinamik tarzda kontekst, ijtimoiy munosabatlar va kommunikativ strategiyalar ta'sirida shakllanadi. Shu sababli so'rov nutq aktlarini o'rganishda faqat grammatik tuzilma emas, balki pragmatik kontekst ham birlamchi tahlil ob'ekti bo'lishi lozim[4].

XULOSA

Ushbu tadqiqot ingliz tilidagi so'rov nutq aktlarining funksional va semantik tabiatini ko'rib chiqib, quyidagilarni xulosa sifatida ayta olamiz:

Birinchi, ingliz tilidagi so'rov nutq aktlari funksional jihatdan to'rtta asosiy turga ya'ni, interrogativ, direktiv, kommissiv va ijrochi so'rovlarga bo'linadi, ularning har biri o'ziga xos kuch va kommunikativ maqsadga ega ekanligi aniq bo'ldi.

Ikkinchidan, semantik tahlil ko'rsatdiki, bilvosita so'rovlar ingliz nutq madaniyatida dominant strategiya hisoblanadi.

Uchinchidan, pragmatik kontekst so'rov nutq aktlarining to'g'ri talqini uchun hal qiluvchi omil ekanligini tahlil yaqqol ko'rsatdi. Institutsional va kundalik muloqot kontekstlarida so'rovlar turlicha shakllanadi va talqin qilinadi.

Tadqiqot natijalari ingliz tilini o'qitish metodikasida, xususan ikkinchi til sifatida ingliz tilini o'rganuvchilar uchun pragmatik kompetensiyani rivojlantirishda, shuningdek tarjimonlik amaliyotida amaliy ahamiyat kasb etadi. Keyingi tadqiqotlar uchun so'rov nutq aktlarining diskurs tahlili, kompyuter-vositachilik orqali muloqot va sun'iy intellekt tizimlarida qo'llanilishi kabi yo'nalishlar bo'yicha ish olib borish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Levinson S.C. Pragmatics. - Cambridge: Cambridge University Press, 1983. - 420 p.
2. Austin J.L. How to Do Things with Words. - Oxford: Oxford University Press, 1962. - 167 p.
3. Searle J.R. Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language. - Cambridge: Cambridge University Press, 1969. - 203 p.
4. Yule G. Pragmatics. - Oxford: Oxford University Press, 1996. - 138 p.
5. Searle J.R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. - Cambridge: Cambridge University Press, 1979. - 187 p.
6. Vanderveken D. Meaning and Speech Acts. Vol. 1-2. - Cambridge: Cambridge University Press, 1990. - 276 p.
7. Leech G. Principles of Pragmatics. - London: Longman, 1983. - 250 p.
8. Brown P., Levinson S.C. Politeness: Some Universals in Language Usage. - Cambridge: Cambridge University Press, 1987. - 345 p.
9. Qodirov Z. Ingliz va o'zbek tillarida so'rov nutq aktlarining qiyosiy-tipologik tahlili. - Toshkent: Fan, 2018. - 168 b.
10. Thomas J. Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics. - London: Longman, 1995. - 224 p.
11. Blum-Kulka S., House J., Kasper G. Cross-Cultural Pragmatics: Requests and Apologies. - Norwood, NJ: Ablex, 1989. - 300 p.
12. Mey J.L. Pragmatics: An Introduction. 2nd ed. - Oxford: Blackwell, 2001. - 392 p.
13. Coates J. The Semantics of the Modal Auxiliaries. - London: Croom Helm, 1983. - 258 p.